FARG‘ONA VILOYATIDA MAHBUSLAR KONTINGENTI VA QAMOQXONA TIZIMI BOSHQARUVI (1867–1917-YILLAR)

Karimova Go‘zalxon Rustamjon qizi
Farg‘ona viloyati Beshariq tumanidagi 2-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
gozalhonrustamovna@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrda Farg‘ona viloyatida shakllangan qamoqxona va jazolash tizimi, uning boshqaruv mexanizmlari hamda mahbuslar kontingentining tarkibiy xususiyatlari tarixiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning xronologik chegarasi 1867–1917-yillarni qamrab olib, Farg‘ona hududining Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi ma’muriy-huquqiy maqomi va qamoq jazosi institutining rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib beriladi. Shuningdek, Rossiya imperiyasining mustamlaka boshqaruvi sharoitida politsiya, harbiy-ma’muriy hamda sud organlarining mahbuslarni hibsga olish, saqlash va nazorat qilishdagi amaliy vazifalariga alohida e’tibor qaratiladi. Arxiv manbalari (O‘zR MDA, Ф. И-19) va rasmiy statistik nashrlar tahlili orqali mahbuslar tarkibida jinoiy va siyosiy sabablarga ko‘ra qamalganlar nisbati baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona viloyati, Turkiston general-gubernatorligi, qamoqxona tizimi, mahbuslar kontingenti, mustamlaka boshqaruvi, politsiya, sud, hibs, surgun, jazo instituti.*

Аннотация. *В данном исследовании с историко-правовой точки зрения анализируются пенитенциарная система, механизмы ее управления и структурные особенности контингента заключенных, сформировавшиеся в Ферганской области во второй половине XIX – начале XX века. Хронологические рамки исследования охватывают 1867–1917 гг., раскрывая взаимосвязь между административно-правовым статусом Ферганского региона в составе Туркестанского генерал-губернаторства и развитием института лишения свободы. Особое внимание уделяется практическим функциям полиции, военно-административных и судебных органов по аресту, содержанию и надзору за заключенными в условиях колониального управления. На основе анализа архивных источников (ЦГА РУз, Ф. И-19) и официальных*

статистических изданий оценивается соотношение лиц, содержащихся под стражей по уголовным и политическим мотивам.

Ключевые слова: *Ферганская область, Туркестанское генерал-губернаторство, пенитенциарная система, контингент заключенных, колониальное управление, полиция, суд, арест, ссылка, карательный институт.*

Abstract. *This study logically and legally analyzes the penitentiary system, its management mechanisms, and the structural features of the prisoner contingent formed in the Fergana region from the second half of the 19th century to the beginning of the 20th century. The chronological scope covers 1867–1917, revealing the relationship between the administrative-legal status of the Fergana region within the Turkestan Governor-Generalship and the development of the institution of imprisonment. Special attention is paid to the practical functions of the police, military-administrative, and judicial bodies in the arrest, detention, and supervision of prisoners under colonial rule. Based on the analysis of archival sources (CGA RUz, F. I-19) and official statistical publications, the proportion of individuals detained for criminal and political reasons is evaluated.*

Keywords: *Fergana region, Turkestan Governor-Generalship, prison system, prisoner contingent, colonial administration, police, court, detention, exile, penal system.*

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo xonliklari hududlarini egallashi va ushbu mintaqada o‘z ta’sirini mustahkamlashi natijasida siyosiy, ma’muriy va huquqiy tartiblarning tubdan o‘zgarishi yuz berdi. 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi imperiyaning mintaqadagi harbiy-ma’muriy boshqaruv institutlarini shakllantirishda muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Keyinchalik, Qo‘qon xonligining tugatilishi munosabati bilan 1876-yil 19-fevraldagi imperator farmoniga ko‘ra Farg‘ona viloyati tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan viloyat dastlab Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon, Namangan, O‘sh va Chust uezdlariga bo‘linib, imperiyaning harbiy-ma’muriy apparatiga bo‘ysundirildi.

Ushbu davrda harbiy va ma’muriy boshqaruv bilan parallel ravishda Rossiya imperiyasining sud, politsiya va penal (qamoqxona hamda jazolash) institutlari shakllantirildi. Yangi tartiblarning o‘rnatilishi mahalliy xalqning an’anaviy turmush tarzini izdan chiqarish bilan birga, jamiyat ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish mexanizmlarini ham vujudga keltirdi. Shu sababli Farg‘ona viloyatidagi qamoqxona

tizimini, mahbuslar kontingentining shakllanish omillarini hamda jazolash institutlarini tadqiq etish nafaqat jinoyatchilik dinamikasini, balki Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi mustamlaka boshqaruvi va ijtimoiy nazorat apparatining mohiyatini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

1867-yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligi dastlab Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini o‘z ichiga olgan bo‘lsa, keyingi hududiy va ma’muriy islohotlar natijasida uning qamrovi sezilarli darajada kengaydi. 1876-yildan e’tiboran Farg‘ona viloyati ham imperiyaning strategik va iqtisodiy jihatdan eng muhim hududlaridan biri sifatida ushbu ma’muriy va harbiy okrug tizimiga kiritildi.

Tadqiqotda O‘zbekiston Республикаси Марказий давлат архиви (O‘zR MDA)ning Ф. И-19 (Фарғона вилояти ҳарбий губернатори канцеляцияси) фонди materiallari alohida o‘rin tutadi. Фонднинг 1-описида (Опись 1) viloyat va uezd darajasidagi qamoqxonalar, xususan, Marg‘ilon va Qo‘qon qamoqxonalari, ulardagi mahbuslarni saqlash sharoitlari, qamoqxona inspektsiyasi hisobotlari hamda ma’muriy va sudiy hibslarga oid qator yig‘majildlar (4512, 4523, 4533, 4781, 4800, 5134, 5501, 5609-delolar) saqlanmoqda. Bundan tashqari, 1898-yilgi Andijon voqealaridan so‘ng sud-huquq va sud-ijro tizimini isloh qilishga oid 5596-delo («О судебном преобразовании в Туркестанском крае», 1898 g.) hamda 1902-yilgi 5928-delo («Инструкция народных судов») hujjatlari viloyatdagi jazo va politsiya nazorati tizimining huquqiy me’yorlarini o‘rganish imkonini beradi.

Farg‘ona viloyatida qamoqxona tizimining shakllanishi va rivojlanishi imperiyaning mintaqadagi umumiy sud-huquqiy siyosati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan qonunchilik normalari mahalliy hududlarda sud organlari hamda ma’muriy nazoratning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona viloyatida mahalliy qozilik va biy sudlari bilan bir qatorda imperiya qonunchiligiga tayangan okrug sudlari, prokuratura va tergov organlari faoliyat ko‘rsatdi.

Qamoqxona tizimi boshqaruvida politsiya apparati hamda uezd ma’muriyatlarining roli alohida o‘rin tutgan. Politsiya polkovniklari va uezd boshliqlari tomonidan berilgan buyruqlar va ma’muriy qarorlar ko‘p hollarda sud qarorisiz ham shaxslarni muayyan muddatga hibsda saqlash yoki viloyat hududidan surgun qilish imkonini yaratgan.

Viloyat qamoqxonalaridagi mahbuslar kontingenti murakkab va xilma-xil tarkibga ega bo‘lgan. Ularni shartli ravishda quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

Jinoiy mahbuslar: O‘g‘rilik, bosqinchilik, qotillik va mol-mulkka zarar yetkazish kabi umumiy jinoyatlarni sodir etgan shaxslar.

Ma’muriy tartibda hibsga olinganlar: Soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamaslik, pasport yoki harakatlanish hujjatlarisiz yurish, ma’muriyat buyruqlariga bo‘ysunmaslik va boshqa ma’muriy huquqbuzarliklar uchun ushlanganlar.

Siyosiy va ijtimoiy qarshilik ko‘rsatganlar: Imperiya ma’muriyatining mustamlaka siyosatiga, milliy hamda diniy zulmga qarshi chiqqan, tartibsizliklar tashkil etgan yoki ularda ishtirok etgan shaxslar.

Ayniqsa, 1898-yilgi Andijon voqealari (Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni) hamda 1916-yilgi umummilliy qo‘zg‘olon davrida Farg‘ona viloyatida hibsga olish, favqulodda sud va jazolash amaliyotlarining ko‘lami misli ko‘rilmagan darajada ortdi. Rossiya davlat harbiy-tarixiy arxivi (RGVIA) fondlarida saklanayotgan Turkiston harbiy okrugi materiallarida 1898-yilgi Farg‘ona voqealari, harbiy-dala sudlarining qarorlari, osib o‘ldirish, katorga va Sibirga surgun qilish haqidagi yuzlab ishlar va tergov hujjatlari saqlanmoqda.

Farg‘ona viloyatidagi qamoqxona va jazolash tizimi faoliyatini atroflicha tadqiq etishda “Turkestanskiy sbornik” (Turkiston to‘plami) alohida manbashunoslik ahamiyatiga ega. Uning sahifalarida Farg‘ona viloyatidagi qamoqxona binolarining ahvoli, mahbuslarni saqlash sharoitlari, ularning soni va xarajatlari xususida qimmatli rasmiy va publitsistik ma’lumotlar saqlangan. Shuningdek, “Pamyatnaya knijka Ferganskoy oblasti” to‘plamlarida viloyat qamoqxona inspeksiyalari va uezd qamoqxonalari ma’muriy tarkibi bo‘yicha ma’lumotlar o‘z aksini topgan.

ILMIY NATIJA

O‘tkazilgan manbashunoslik va tarixiy-huquqiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1867–1917-yillarda Farg‘ona viloyatidagi jazolash hamda qamoqxona tizimining rivojlanishi uchta asosiy yo‘nalishda kechgan:

Boshqaruvning markazlashuvi: Rossiya imperiyasining umumdavlat qamoqxona qonunchiligini mahalliy harbiy-ma’muriy sharoitga moslashtirish va markazlashtirilgan nazoratni o‘rnatish.

Sud-huquqiy institutlarning institutsionalizatsiyasi: Okrug sudlari, tergovchilar va harbiy-dala sudlari tizimining qamoqxona muassasalari bilan integratsiyalashuvi.

Politsiya va ma’muriy nazoratning kuchaytirilishi: Huquqbuzarliklarning oldini olish bahonasi bilan mahalliy aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini cheklash.

1876-yilda viloyat tashkil etilgach, ma’muriy muassasalar bosqichma-bosqich shakllantirildi. 1899-yilga kelib, Turkiston harbiy okrugi va general-

gubernatorlikning tashkiliy-huquqiy tuzilmasi nisbatan barqaror shaklga keldi. Aynan shu davrdan e’tiboran viloyat va uezd qamoqxonalari moddiy-texnik bazasini tartibga solish, mahbuslarni saqlash xarajatlarini smetaga kiritish va katorga hamda surgun ishlarini tizimlashtirish harakatlari kuchaydi.

XULOSA

1867–1917-yillar oralig‘ida Farg‘ona viloyatida qamoqxona tizimining shakllanishi va uning boshqaruv mexanizmlari Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi general-gubernatorlik boshqaruv modeli bilan uzviy bog‘liq holda rivojlandi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona viloyatidagi mahbuslar kontingenti faqat huquqbuzar jinoyatchilardan emas, balki ma’muriy tartibga bo‘ysunmagan va ijtimoiy-siyosiy qarshilik harakatlarida ishtirok etgan mahalliy aholi vakillaridan ham tashkil topgan. Qamoqxona tizimi mustaqil jazo muassasasi sifatida emas, balki politsiya, harbiy ma’muriyat va sud apparatini o‘zida birlashtirgan umumiy imperiya nazorat mexanizmining muhim bir qismi sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda Farg‘ona viloyatining alohida uezdlari kesimida qamoqxona binosi va hibsxonalarning joylashuvi, mahbuslarning ta’minoti hamda 1898 va 1916-yillardagi siyosiy jarayonlarning mahbuslar tarkibiga ta’sirini O‘zR MDA Ф. И-19 fondi hujjatlari asosida qiyosiy-tarixiy tahlil qilish va ilmiy muomalaga yangi manbalarni olib kirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви (ЎзР МДА). – Фонд И-19 (Фарғона вилояти ҳарбий губернатори канцелярияси). – Опись 1. – Делолар: 4512, 4523, 4533, 4781, 4800, 5134, 5501, 5596, 5609, 5928.

2. Туркестанский сборник сочинений и статей, относящихся до Центральной Азии вообще и Туркестанского края в особенности. – Ташкент, 1867–1917. – Т. 1–594.

3. Памятная книжка Ферганской области на 1912 год. – Скобелев: Типо-литография Ферганского областного правления, 1912. – 312 с.

4. Tokhtayev N. History of the Activities of Judicial and Legal Bodies of Turkestan General-Governorate (1865–1917) // Journal of Social Research in Uzbekistan. – 2024. – Vol. 4, No. 2. – P. 45–58.

5. Güngör E. Rus Salnamelerine Göre Türkistan Askerî Valiliği’nde Nüfus Hareketleri (1867–1917) // Belleten. – 2024. – Cilt 88, Sayı 311. – S. 115–138.